

# O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI

VOL. 2 ISS: 1 (2025)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN  СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА 

INSURANCE



| №   | MUNDARIJA                                                                                                                                                                                       | Page |
|-----|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------|
| 1.  | YASHIL SUG'URTA ORQALI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH VA EKOLOGIYANI ASRASH<br><i>Yuldashev Akromjon Qurbonnazarovich, To'rayev Sherxon Mo'min o'g'li</i>                                         | 3    |
| 2.  | IQLIM O'ZGARISHI TA'SIRIDAGI MOLIYAVIY YO'QOTISHLARDAN HIMOYALASHDA INDEKS SUG'URTALASHNI JORIY ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI<br><i>Yadgarov Akram Akbarovich</i>                          | 6    |
| 3.  | O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUG'URTA BOZORINING RIVOJLANISH JARAYONLARI TAHLILI<br><i>Nurullaev Abdulaziz Sirojiddinovich</i>                                                                      | 9    |
| 4.  | СУГУРТА БОЗОРИ ВА МОЛИЯВИЙ КОНВЕРГЕНЦИЯ ЖАРАЁНИДА УНИНГ ТРАНСФОРМАЦИЯСИ<br><i>Халиков Умид Рахматуллаевич</i>                                                                                   | 13   |
| 5.  | СУГУРТА КОМПАНИЯЛАРИНИНГ МОЛИЯВИЙ РЕСУРСЛАРИНИ ЖОЙЛАШТИРИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ<br><i>Маврулова Нилуфар Абдухалиловна</i>                                                                     | 18   |
| 6.  | REGULATORY AND FINANCIAL BARRIERS TO SME DEVELOPMENT IN EMERGING MARKETS (IN CASE OF UZBEKISTAN)<br><i>Tojiyev Abror Rakhmonalievich, Rakhmonaliev Abbos Abror ugli</i>                         | 21   |
| 7.  | TIJORAT BANKLARIDA CHAKANA BANK MAHSULOTLARINI SOTISH AMALIYOTINING RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI<br><i>Yunusova Shaxlo Raximdjanoyna</i>                                                     | 24   |
| 8.  | USING MARKETING STRATEGIES TO ENHANCE THE COMPETITIVENESS OF THE NATIONAL ECONOMY<br><i>Bobomurodov Kayimjon Homidovich</i>                                                                     | 29   |
| 9.  | НЕЙРОМАРКЕТИНГ И ПОВЕДЕНИЕ ПОТРЕБИТЕЛЕЙ: ГЛУБОКОЕ ПОНИМАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ВЫБОРА<br><i>Юлдашев Жамшид Абрарович</i>                                                                                | 32   |
| 10. | ЎЗБЕКИСТОН АҲОЛИСИ ТУРМУШ ДАРАЖАСИДАГИ ТАФОВУТЛАРНИНГ ИҚТИСОДИЙ- СТАТИСТИК ТАҲЛИЛИ<br><i>Илёсова Дилбар Исмоил қизи</i>                                                                         | 35   |
| 11. | KORPORATIV TUZILMALARDA AKSIYALAR BOZORIDAN MOLIYAVIY RESURLAR JALB QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH<br><i>Xasanov Xayrullo Nasrullayevich</i>                                                        | 38   |
| 12. | ISHSIZLIKNI KAMAYTIRISH UCHUN KICHIK VA O'RTA BIZNESNI RIVOJLANTIRISH<br><i>Muhammadjonova Iroda Bahodir qizi, Tohirjonov Rahmatillo Farhodjon o'g'li, Hayitaliyev Jahongir Komiljon o'g'li</i> | 41   |
| 13. | SOLIQ BAZASINI ANIQLASH METODOLOGIYASIGA OID UMUMIY NAZARIYA VA YONDASHUVLAR<br><i>Xalikchayeva Sadokat Ilxomjonovna</i>                                                                        | 43   |



## IQLIM O'ZGARISHI TA'SIRIDAGI MOLIVAVIY YO'QOTISHLARDAN HIMOYALASHDA INDEKS SUG'URTALASHNI JORIY ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Yadgarov Akram Akbarovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, "Yashil" iqtisodiyot kafedrası professori, i.f.d.

email: [ayadgarov79@mail.ru](mailto:ayadgarov79@mail.ru)

| ARTICLE INFORMATION                                                                                                                                    | ABSTRACT                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                       |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Volume: 2</b><br><b>Issue: 1</b><br><b>DOI:</b> <a href="https://doi.org/10.55439/INS/vol2_iss1/243">https://doi.org/10.55439/INS/vol2_iss1/243</a> | <p>Ushbu maqolada iqlim o'zgarishlari ta'siridan moliyaviy yo'qotishlarni sug'urtaviy himoyalashda indeks sug'urtalashni doriy qilishning ilmiy va uslubiy jihatlari batafsil yoritilgan. Indeks sug'urtalash borasida xalqaro tajribalar o'rganilgan holda tadqiqot natijalari keltirib o'tilgan. Shu bilan birga O'zbekiston qishloq xo'jaligini turli tabiiy ofatlar va turli stixiyali xavf-xatarlardan sug'urtalashda yangi sug'urta turi sifatida indeks sug'urtalashni joriy etishning xususiyatlari va uning moliyaviy jihatdan afzalliklari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.</p> |
| <b>KEYWORDS</b>                                                                                                                                        | <p><i>global iqlim o'zgarishi, sug'urta hodisasi, indeks sug'urta, hosil sug'urtasi, sug'urta mukofoti, sug'urta to'lovlari.</i></p>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           |

### Kirish (Введение /Introduction)

Insoniyatni global darajada tahlikaga solayotgan xavf-xatarlardan biri sifatida iqlim o'zgarishining tezlashuvi sodir bo'layotganligi ayni haqiqat. Global iqlim o'zgarishi bugungi kunda bevosita shaxs, jamiyat va davlat darajasida ham kuchli va sezilarli ta'sir ko'rsatishda davom etishi, barcha mamlakatlarda birdek joriy va kelajakdagi iqlim xavf-xatarlariga moslashish hamda iqlimiy xavf-xatarlardan ko'riladigan moliyaviy zararlarni qoplash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishi dolzarbli bilan muhim ahamiyatga ega.

Darhaqiqat, iqlim o'zgarishi natijasida sodir bo'layotgan yirik miqyosdagi tabiiy va texnogen ofatlar bilan bog'liq moliyaviy xarajatlar ortib borishi sababli, har bir mamlakatning barqaror rivojlanishi ma'lum bir iqlimiy tahdidlar ostida bo'ladi. Shuningdek, iqlim o'zgarishi bilan bog'liq tabiiy ofatlarning tez-tez sodir bo'lish hamda ta'sir ko'lamining ortishi bevosita oziq-ovqat xavfsizligi, chuchuk suv resurslari kamayishi insoniyatning yashash va iste'mol xavfsizligiga ta'sir qiladi. Bu jarayon jiddiy nazoratga olinmasa ba'zi mamlakatlarda qashshoqlik ortishiga ham olib keladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4412-sonli qaroriga ko'ra, mamlakatimiz qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatini sug'urtalashda "Indeks sug'urtasini amalga oshirishning zamonaviy holati va mexanizmlarini, shuningdek, mazkur sug'urta turini respublika qishloq xo'jaligi sohasiga joriy etish istiqbollari" bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish masalalari belgilab berilgan [1]. Ushbu indeks sug'urta turini joriy etish borasida xalqaro miqyosda olib borilgan tadqiqotlarni o'rganish va mamlakatiz agrar tarmog'iga joriy etish maqsadga muvofiqdir.

### Adabiyotlar sharhi (Обзор литературы/Literature review)

Indeks sug'urta turi asosan AQSh, Kanada, Ispaniya, Meksika, Hindiston, Xitoy va boshqa mamlakatlarda rivojlangan bo'lib, turli iqlim o'zgarishlaridan kelib chiqqan holda qo'llanib kelinmoqda. MDH davlatlari ham global iqlim o'zgarishlariga tayyor turish va ko'riladigan moliyaviy zararlarni qoplashda indeks sug'urtasini keng joriy etish borasida ham samarali ishlarni olib bormoqda.

Mintaqalarda iqlim o'zgarishi bilan bog'liq tadqiqotlar Gómez-Limón J.A. tomonidan olib borilgan bo'lib, asosan gidrologik qurg'oqchilik xavfi bevosita O'rta er dengizi davlatlarida ham sezilarli darajada ta'sir etishini o'rgangan. Shu jihatdan, qishloq xo'jaligining sug'oriladigan erlarida suv ta'minotidagi uzilishlarning salbiy oqibatlari ayniqsa suv ta'minoti korxonalarida ham katta xavotirni keltirib chiqishi bilan bog'liq masalalar tadqiq qilingan [2]. Shunga ko'ra, qishloq xo'jaligida sug'oriladigan er maydonlarining qurg'oqchilik oqibatida suv ta'minotidagi uzilishlar xavfini qoplash uchun yangi indeks sug'urta turi taklif etilgan. Tavsiya etilayotgan indeks sug'urta turi gidrologik qurg'oqchilik bilan bog'liq xavfni samarali boshqarishda yordam beradigan istiqbolli vosita hisoblanadi.

Tadqiqotchilar Eze E. va boshqalar tomonidan indeks sug'urtalashni joriy etish orqali iqlim o'zgarishining qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligiga ta'sirini pasaytirish natijasida mahalliy aholi uchun xavflarni oldini olish masalalarini tadqiq qilishgan [3]. Tadqiqot ishida qishloq xo'jaligi ekinlarning hosildorligini baholashda ekinlarning suvga bo'lgan talablaridan foydalanishni baholashga qishloq xo'jaligi tashkilotining CROPWAT 8.0 - dasturidan foydalangan holda qishloq xo'jaligi ekinlari hosilini baholash modelini tavsiya etishgan.

Boyd M. va boshqalar ham o'zlarining tadqiqotlarida iqlim o'zgarishlari bilan bog'liq ravishda ob-havoning o'zgarishi an'anaviy tarzda qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini sug'urtalashga nisbatan indeks sug'urtalash yangi muqobil sug'urta turi sifatida tadqiq etishgan. Indeks sug'urtalash hozirda an'anaviy ekinlarni sug'urtalashga nisbatan tajribaviy-sinov davrini o'tamoqda [4]. Shu bois, ob-havoning o'zgarishi qishloq xo'jaligi korxonalariga katta xavf-xatar keltirayotganligi bois indeks sug'urtasini keng joriy etish lozimligi ta'kidlab o'tilgan. Tadqiqot ishida Kanadaning kunlik ob-havo ma'lumotlari va hududiy darajadagi qishloq xo'jaligi ekinlari hosili bo'yicha ma'lumotlarga tayanilgan.

MDH olimlaridan Yu.A.Spletuxov tomonidan aynan mintaqalardagi qishloq xo'jaligi korxonalari, xususan fermerlarning ekinlar hosilini yuqotishdan himoya qilish maqsadida hududiy hosildorlik indeksi asosida sug'urtalashni joriy qilishning maqsad va mohiyatini yoritib bergan [5]. Sug'urta qilingan qishloq xo'jaligi ekinlarining o'rtacha hosildorligi sug'urta qilingan hosil chegarasidan past bo'lsa indeks sug'urtalash

asosida kompensatsiya to'lanishi aytib o'tilgan. Ushbu darajaga qarab sug'urta badallari uchun davlat tomonidan beriladigan subsidiyalari miqdori ham o'zgaradi, sug'urta mukofotlari miqdoriga qarab sug'urta qoplamasining ko'payishiga sabab bo'ladi.

Mahul va Stutley fikriga ko'ra, "qishloq xo'jaligi sug'urtasi qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari salbiy tabiiy hodisalar - iqlim o'zgarishi kelajakda tez-tez va jiddiyroq bo'lishi mumkin bo'lgan hodisalar - bilan bog'liq xavflarni kamaytirish uchun foydalanishi mumkin bo'lgan moliyaviy vositalardan biri". Ushbu vositalar ekinlar va chorvachilikka ta'sir qiladigan falokatlarini qoplashni ta'minlaydi va qishloq xo'jaligidagi xavflarni boshqarish doirasida qo'llanilganda eng samarali hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi sug'urtasining har xil turlari mavjud, ammo ular odatda ikkita keng guruhga bo'linadi: an'anaviy ekinlarni sug'urtalash mahsulotlari va indeks asosidagi ob-havo sug'urtasi.

#### Tadqiqot metodologiyasi (Методы/Methods).

Olib borilgan tadqiqotda respublikamiz qishloq xo'jaligida indeks sug'urtalash joriy etishdan avval uning nazariy va uslubiy asoslarini rivojlantirish, turli iqlim o'zgarishlariga mos indeks sug'urtalashni ekologik omillarga nisbatan chidamliligini baholash masalalari atroflicha tahlil qilindi.

Maqolada indeks sug'urtalashni joriy etish borasida nazariy va amaliy jihatlar haqida mushohada yuritildi, tizimli yondashuv, statistik ma'lumotlarni umumlashtirish, tahlil va sintez kabi usullar qo'llanilgan holda qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatini sug'urtalashda indeks sug'urtalashni joriy etish borasida taklif va tavsiyalar shakllantirilgan.

**Tahlil va natijalar muhokamasi (Анализ и результаты/ Analysis and results).**

Global iqlim o'zgarishlariga moslashish va sodir bo'ladigan tabiiy ofatlar va boshqa turdagi hodisalar natijasidagi moliyaviy zararlarni qoplashga mo'ljallangan sug'urta turlarini yaratish zamon talabiga aylandi. Shu bois, hozirgi hamda kelajakdagi iqlim o'zgarishi bilan bog'liq xavf-xatarlarni boshqarish uchun istiqbolli sug'urta xizmatlarini

to'lov indeks sug'urtasida qoplab berish nazarda tutiladi. Bunda indeks sug'urtasi ma'lum bir davr uchun yog'ingarchilik miqdori yoki harorat

#### 2-jadval Ob-havoga bog'liq indeksli sug'urtalash tizimida ba'zi omillar va ularning ta'siri<sup>1</sup>

|                                                       |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                            |
|-------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Yog'inlar etishmasligi (qurg'oqchilik) ta'siri</b> | <ul style="list-style-type: none"><li>Qurg'oqchilik past hosil olishning asosiy sabablaridan biri.</li><li>Qurg'oqchilikni an'anaviy sug'urta tizimida, ayniqsa kichik fermer tizimlari uchun sug'urta qilish qiyin.</li><li>Qishloq xo'jaligida ob-havo indeksli uchun eng ko'p ishlatiladigan parametrlar.</li><li>Sug'urtaladigan ekinlar uchun yog'ingarchilikni indekslash mumkin emas.</li><li>Boshqa o'zgaruvchilar (ayniqsa, tuproq va harorat) transpiratsiya va suv muvozanatiga ta'sir qiladi, ammo qurg'oqchilik ko'rsatkichlari hozirgacha bitta xavf sifatida yog'in miqdori bilan cheklangan.</li><li>Xavfning asosiy davri: ayniqsa ekinlarni ekish va gullash davrida, shuningdek vegetatsiya jarayonining barcha bosqichlarida.</li></ul>                                                                                                                                                                                                                                |
| <b>Ortiqcha yog'inlar indeksli ta'siri</b>            | <ul style="list-style-type: none"><li>O'rim-yig'im davrida yoki umuman etilgan ekinlarni yo'qotish bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqaradi.</li><li>Ta'sir toshqin bo'lishi mumkin.</li><li>Ob-havo indeksli xavf sifatida keng rivojlanmagan.</li><li>Xavfning asosiy davri: etilish va hosil davri.</li></ul>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                       |
| <b>Yuqori harorat ta'siri</b>                         | <ul style="list-style-type: none"><li>Eng muhim ta'sir yog'ingarchilikning etishmasligi va qurg'oqchilik davrida yuqori bug'lanish bilan birga bo'ladi.</li><li>Odatda qurg'oqchilik indekslari hozirgacha yog'ingarchilik tanqisligi bilan cheklangan va haroratni o'z ichiga olmaydi.</li><li>Xavfning asosiy davri: yuqori harorat har qanday o'sish bosqichiga ta'sir qilishi mumkin, ayniqsa, ekinlarning o'sishi va gullashi davrida ta'sir yuqori bo'ladi.</li></ul>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                |
| <b>Past harorat ta'siri</b>                           | <ul style="list-style-type: none"><li>Mavsumga qarab murakkab ta'sirlar:<ul style="list-style-type: none"><li>qishki muzlash (o'rta uzunlikdagi hodisa);</li><li>kuz va bahor ayosi (to'satdan sodir bo'ladigan hodisa);</li><li>o'sish davrida me'voriy haroratli kunlarning etarli emasligi (uzoq davom etadigan hodisa).</li></ul></li><li>Qisqa muddatli sovuq hodisalarini indekslash qiyin (aniq o'sish bosqichiga katta bog'liqlik mavjud).</li><li>Bahorgi sovuqdan hosilning yo'qolishi (gullashning etishmasligi) yoki kuzda (meva) sifatining yo'qolishi.</li><li>Qishki muzlashning zarari qor qoplamiga bog'liq bo'lishi mumkin.</li><li>Ba'zi ekinlar, masalan, paxta uchun, ayniqsa, vegetatsiya davri cheklangan bo'lsa, etarli haroratga ega kunlar miqdori muhim ahamiyatga ega.</li><li>Xavfning asosiy davri: meva va yong'oqlarda gullashda bahorgi sovuq, mevalarda kuzgi sovuq, pishib etishda sovuq harorat, boshqoqlik davrida qish o'ralarida muzlash.</li></ul> |

chegarasi ta'sirida keltirilgan zararni qoplashga yo'naltiriladi. Ob-havoga bog'liq indeksli sug'urtalash tizimidagi omillar va ularning ta'siri keltirib o'tilgan holda ta'sir etuvchi omillar guruhlariga bo'lingan holda ta'sir etish doirasi izohlab berilgan. Iqlim o'zgarishi ta'sirida ob-havoga bog'liq holda indeks sug'urtalash tizimiga ta'sir etuvchi omillarni doimiy ravishda o'rganish va shunga mos darajada sug'urta tariflarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq (2-jadval).

Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq xavf-xatarlar an'anaviy sug'urta shartnomasidagi parametrlardan ortgan taqdirda indeks sug'urtasi

#### 3-jadval

##### An'anaviy sug'urta va indeks sug'urtasining farqlari

| An'anaviy sug'urtaning kamchiliklari                    | Indeks sug'urtasi tomonidan beriladigan echiqlar                                                      |
|---------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1. E'tirozlarni amalga oshirish ko'p vaqt talab qiladi. | 1. E'tirozlarni amalga oshirish avtomatik tarzda sodir bo'ladi va mablag' bir necha kunda tushadi.    |
| 2. Juda qimmat (sug'urta tariflari yuqoriligi).         | 2. Kam xarajatlari (e'tirozlarni ko'rib chiqishda xarajatlarni kam) mijoz byudjetiga moslashtirilgan. |
| 3. Kompensatsiya sug'urtalovchi ta'siri ostida bo'ladi. | 3. Mustaqil tarzda ob-havo o'zgarishiga moslashtirilgan holda badal to'laydi.                         |
| 4. Kutilmagan holatga mos emas.                         | 4. Individual va shaffof.                                                                             |
| 5. Hududlar iqlimiga to'liq moslashtirilmagan.          | 5. Butun dunyoda tarqalgan sug'urta turi hisoblanadi.                                                 |
| 6. Yillik sug'urta polisi taqdim etilishi.              | 6. Yillik va ko'p martali sug'urta polisi taqdim etadi.                                               |

Manba: Ilmii adabiyotlarni tadqiq qilish va umumlashtirish asosida muallif tomonidan tuzilgan.

bo'yicha o'z navbatida mijozlarga zarar bo'yicha to'lovlar tez fursatda bahs-munorasiz hisob-kitob qilinishini ta'minlab beradi. Aytish joizki, an'anaviy sug'urtaga qaraganda indeks sug'urtasi o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lib, mustaqil holda iqlim o'zgarishlarini hisobga olgan holda tez moslashuvchanligi, adolatli va shaffofligi hamda ko'rilgan zararlarni tezda qoplay olish imkoniyatiga ega bo'lgan sug'urta turi hisoblanadi (3-jadval).

#### Xulosa va takliflar (Заключение/Conclusion).

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini sug'urtalashda indeks sug'urta turini joriy qilishda quyidagilarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir:

birinchidan, qishloq xo'jaligida yuz berayotgan turli tabiiy hodisa va tabiiy ofatlarni hududlar xususiyatidan kelib chiqib o'rganish hamda qishloq xo'jaligini sug'urtalash indeks sug'urtasini hududiy yondashuv asosida shakllantirish;

ikkinchidan, qishloq xo'jaligi korxonalari xususan, dehqon xo'jaliklari ya'ni tomorqa xo'jaliklari faoliyatini sug'urtalashga bo'lgan e'tiborni oshirish, bu borada indeks sug'urta tariflarini ishlab chiqish;

uchinchidan, indeks sug'urtalashda "O'zgidromet" ma'lumotlari asosida indeks sug'urta polislarini joriy etish;

to'rtinchidan, iqlim o'zgarishlari sharoitida mamlakat aholisining ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan ekinlar (g'alla va sholi mahsulotlari) ni sug'urtalashda indeks sug'urtasini amaliyotga keng tadbiiq etish maqsadga muvofiqdir.

#### 1-jadval

##### Indeks asoslangan sug'urta mahsuloti turiga qiyosiy yondashuv

| Hududning rentabellik indeks sug'urtasi                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                       | Ob-havoga asoslangan indeks sug'urtasi                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                        |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Indeks sug'urta turi bevosita fermer xo'jaliklari kutilgan darajadagi ekinlar hosili etishmasligi bilan yuqori xavf darajasi bog'liq bo'lgan jarayonda indeks sug'urtasi asosida amalga oshirishga qaratilgan to'lov kafolatini ta'minlaydi. To'lovlar ma'lum hududlarda hosilning hisob-kitoblari asosida to'lanadi. Kutilyotgan hosildan past bo'lgan chegara belgilanadi va o'rta hosil darajasidan past bo'lganda fermerlarga sug'urta to'lovi to'lanadi. | Tovon ma'lum bir hududda oldindan belgilangan vaqt oralig'ida o'lchangan aniq ob-havo parametrlarini hisoblashga asoslanadi. To'lov indeksning realizatsiya qilingan qiymati oldindan belgilangan chegaradan oshib ketganda yoki indeks chegaradan past bo'lganda amalga oshiriladi. Ushbu turdagi mahsulot ob-havo xavfi va hosilni yo'qotish o'rtasida kuchli, miqdoriy bog'liqlik mavjud bo'lgan yuqori korrelyatsiya qilingan xavflar uchun javob beradi. |

Manba: Ilmii adabiyotlarni tadqiq qilish va umumlashtirish asosida muallif tomonidan tuzilgan.

keng joriy etishga qaratilgan ilmiy va amaliy yondashuvni talab qiladi.

Jahon miqyosida global iqlim o'zgarishi sharoitida, ob-havo omillari yildan-yilga qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarning faoliyatiga ta'siri ortib borayotgan bir davrda, indeks sug'urtasi aynan qishloq xo'jaligi uchun maqbul echimga aylanishi hamda qishloq xo'jaligini barqarorligi va rentabelligini oshirishga xizmat qiladi.

Indeks asoslangan sug'urtalash. Bu fermerlarga zararni haqiqiy miqdorini baholashdan ko'ra indeksdagi o'zgarishlar (odatda ob-havo bilan bog'liq, lekin, boshqa omillarni o'z ichiga olishi mumkin) asosida to'laydi. Indeks hosil uchun o'lchov sifatida ishlaydi va shuning uchun indeksdagi o'zgarishlar hosildagi o'zgarishlarni aks ettirishi kerak.

Jahon amaliyotida qo'llanib kelinayotgan indeks sug'urta turi aynan, qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lgan turli xavf-xatar ko'rsatkichlari ta'siridan himoyalaniish maqsadida mintaqalardagi turli iqlim o'zgarishiga xos yondashuv bo'lib, buning natijasida qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligi ma'lum bir davrdagi yog'ingarchilik miqdori, havo harorati, shamol tezligi, namlik darajasi yoki vegetatsiya davrida quyosh nurining pasayishi natijasida hosilni barbod bo'lishidan sug'urtaviy himoyani ta'minlab beradi.

Indeksli sug'urta turi oldindan belgilangan to'lovlarga nisbatan tasodifiy voqealar sodir bo'lganda kutilmagan xavf-xatar chegara qiymatidan ortib ketadigan bo'lsa, indeks sug'urtasi ko'rilgan zararni qoplash maqsadida xizmat qiladi (1-jadval).

Indeks sug'urta turi qishloq xo'jaligi korxonasi bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq qoplanadigan zarar miqdoridan ortadigan bo'lsa,

**References:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4412-sonli qarori. 2019 y.
2. Gómez-Limón, J.A. Hydrological drought insurance for irrigated agriculture in southern Spain. *Agricultural Water Management*. Volume 240, October-2020. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0378377420304492>
3. Eze, E., Girma, A., Zenebe, A., Kourouma, J.M., Zenebe, G. Exploring the possibilities of remote yield estimation using crop water requirements for area yield index insurance in a data-scarce dryland. *Journal of Arid Environments*. Volume 183, December 2020.
4. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0140196320301609?via%3Dihub>
5. Boyd, M., Porth, B., Porth, L., Seng Tan, K., Wang, S., Zhu, W. The Design of Weather Index Insurance. Using Principal Component Regression and Partial Least Squares Regression: The Case of Forage Crops. *North American Actuarial Journal*. Volume 24, Issue 3, 2-July 2020, Pages 355-369.
6. <https://www.scopus.com/record/display.uri?eid=2-s2.0-85079726988&origin=results>
7. Ю.А.Сплетугов. Сельскохозяйственное страхование в России и за рубежом: сравнительная характеристика. *Финансовый журнал* №1 2018. <https://www.nifi.ru/images/FILES/Journal/Archive/2018/1/statii2018/fm2018107.pdf>
8. Burkhanov, Aktam U.; Yadgarov, Akram A.; Saidova, Munisa E.; Tugizova, Malika S. Agricultural insurance protection and food security in the face of global climate change. *Advanced Series in Management*. Volume 33B, page 75 - 791 July 2024. <https://www.scopus.com/record/display.uri?eid=2-s2.0-85197245278&origin=resultslist>
9. Burkhanov, Aktam U.; Yadgarov, Akram A.; Tugizova, Malika S. Forecast scenarios of the development of agricultural insurance in uzbekistan based on econometric models against the background of climate change. *Advanced Series in Management*. Volume 33B, page 47 - 531 July 2024 <https://www.scopus.com/record/display.uri?eid=2-s2.0-85197211362&origin=resultslist>
10. Akram Yadgarov, Azizbek Rakhimov. Reforms on the development of the livestock sector and insurance protection in Uzbekistan. *E3S Web Conf*. Volume 244, 2021. XXII International Scientific Conference Energy Management of Municipal Facilities and Sustainable Energy Technologies (EMMFT-2020). [https://www.e3s-conferences.org/articles/e3sconf/abs/2021/20/e3sconf\\_emmft2020\\_12012/e3sconf\\_emmft2020\\_12012.html](https://www.e3s-conferences.org/articles/e3sconf/abs/2021/20/e3sconf_emmft2020_12012/e3sconf_emmft2020_12012.html)
11. Akram Yadgarov, Munisa Saidova, Iroda Khujakulova, Abrorbek Ergashev. Livestock insurance for food security under climate change: A study from Uzbekistan. *E3S Web Conf*. Volume 563, 2024. International Conference on Environmental Science, Technology and Engineering (ICESTE 2024). [https://www.e3s-conferences.org/articles/e3sconf/abs/2024/93/e3sconf\\_iceste2024\\_03049/e3sconf\\_iceste2024\\_03049.html](https://www.e3s-conferences.org/articles/e3sconf/abs/2024/93/e3sconf_iceste2024_03049/e3sconf_iceste2024_03049.html)
12. A.Yadgarov. The importance of using the agricultural insurance system in increasing the volume of agricultural production in pandemic conditions. *SAARJ Journal on Banking & Insurance Research (SJBIR)* ISSN: 2319-1422 Vol.9, July 2020, Impact Factor: SJIF 2020 = 7.126. 31-37 page. <https://saarj.com/wp-content/uploads/sjbir-july-2020-full-journal>
13. [http:// www.agros.uz](http://www.agros.uz) Annual reporting data of Uzagrosugurta JSC.